

## YANGI O'ZBEKISTONDA ARXITEKTURA SOHASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

*Beknazarova Mahbuba*

*SamDAQI (1-kurs doktoranti)*

*Toshboyeva Hurshida Farhod qizi*

*Termiz muhandislik va texnologiya instituti  
Arxitektura(turlari bo'yicha) 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Vazirlik tizimidagi tashkilotlar, qurilish sohasida axborot-texnologiyalar rivojlantirish markazi, "O'zbekiston Respublikasi davlat shaharsozlik kadastri" geoaxborot tizimi, shaharsozlik hujjatlari ekspertizasini elektron hujjatlar almashinuvi. Qurilish-pudrat tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirish, qurilish ishlari sifatini oshirish

**Kalit so'zlar:** shaharsozlik, kadastri, geoaxborot, qurilish-pudrat tashkiloti, o'zshaharsozlik

Sir emaski, O'zbekistonda so'nggi yillarda barcha sohalar kabi qurilish sohasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor berilmoqda. Tizimni yanada takomillashtirishga qaratilgan hukumat va davlat rahbarining farmon hamda qarorlari, qabul qilingan davlat dasturlari, ular ijrosini ta'minlash, tarmoqda islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan tadbirlar natijada bunyodkorlik ko'lamlari tobora kengayib bormoqda. Biroq, qurilish sohasidagi yangi davrning boshlanishi, tizimdagi muammolarni aniqlash, tan olish va ochiqdash, ayniqsa, ularni yechish oson kechgani yo'q. 2017-2019 yillar va 2020 yilning shu kuniga qadar qurilish sohasini tartibga soluvchi jami 40 ga yaqin qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi: 2017 - 4 ta, 2018 yilda - 13 ta, 2019 yilda - 10 ta va 2020 yilning shu kunigacha 10 dan ortiq. Ushbu qaror va farmonlar tizimda yillar davomida saqlanib qolgan muammolarni tubdan isloh qilishga qaratildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 mayida PQ-2936-son O'zbekiston Respublikasi davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi tarkibiy tuzilmasi tubdan o'zgartirildi va yangi vazifalar qo'yildi. Qo'mitaning hududiy bo'linmalari qo'shimcha shtat birliklari bilan kengaytirildi. Natijada, 11 ta hududda "O'zshaharsozlik" va Samarqand shahrida "Toshkentboshplan" loyiha instituti filiallari, shuningdek, 13 ta hududda 26 ta yetakchi loyiha tashkiloti ochildi. Toshkent va Samarqand arxitektura-qurilish institutlari hamda 14 ta qurilish kasb-hunar kolleji qo'mita tasarrufiga o'tkazildi. Biroq, sohaga doir normativ hujjatlar, jumladan, shaharsozlik qoidalari va qurilish me'yorlarining aksariyat qismi eskirgan, sobiq tuzum davridan qolib ketganligi tufayli, ushbu

me'yorlarni zamonaviy talablarga moslashtirish dolzarbligicha qoldi. Shaharlarning bosh rejalari, qishloqlarda arxitektura-rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqish talabga mutlaqo javob bermas edi. Bundan tashqari, qurilish va loyihalash bo'yicha kadrlar tayyorlash sifati ham talabga javob bermas edi. Xususan, tizimdagi 500 ga yaqin vakant o'rinlar, jumladan, tuman (shahar) arxitektura va qurilish bo'limlaridagi 110 ta, loyiha tashkilotlaridagi 200 ga yaqin shtatlar vakantligicha qolgan. Har tomonlama salohiyatga ega bo'lgan professional qurilish-pudrat tashkilotlari shakllanmagani, ulardagi mavjud moddiy-texnik baza, moliyaviy manbalar tobora ortib borayotgan qurilish ishlari hajmini to'liq qoplashga qodir emas ahvolga kelib qolgan edi. Bir so'z bilan aytganda, Qo'mitaga bildirilgan ishonch oqlanmadi. Yillar davomida yig'ilib qolgan ushbu muammolar va yo'l qo'yilgan sustkashliklarni bartaraf etish maqsadida davlat rahbari farmoni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 apreldagi «Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5392-son farmoniga muvofiq Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi negizida O'zbekiston Qurilish vazirligi tashkil etildi. Shu bilan birga ushbu sananing o'zida "O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3646-son Qarori qabul qilindi. Ushbu hujjat bilan «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» davlat unitar korxonasi tashkil etilishi belgilandi.[1] Unga ko'ra, belgilangan tartibda shaharsozlik hujjatlari ekspertizasini tashkil etish va o'tkazishni ta'minlash, arxitektura-rejalashtirish va shaharsozlik yechimlari darajasini oshirish, loyiha ishi va qurilish ishlab chiqarishini takomillashtirish, loyihalash va qurilish sohasida ilg'or tajribani o'rganish va ommalashtirish kabi asosiy vazifalar biriktirildi. Ushbu ikki me'yoriy hujjat tizimda yangi bosqichga o'tishning negizi bo'ldi. Natijada, 2019 yilga kelib rejadagi 35 ta shaharsozlik hujjatlaridan 18 ta bosh rejalar va 10 ta qishloqlar (ovullar) fuqarolar yig'inlari hududlarini arxitektura-rejalashtirish jihatidan tashkil etish loyihalari ishlab chiqildi. Buning natijasida respublikadagi 113 ta shaharlar (95 foiz) va 142 ta shahar posyolkalari (13,1 foiz) bosh rejalariga ega bo'ladi. Xususan, Respublika bo'yicha jami qurilish ishlari o'sish surati 2019 yil yakuni bo'yicha 119%ga yetib, 68,9 trl. so'mni tashkil etdi. Bu 2017 yil bilan solishtirganda 2 barobar o'sish demakdir. 2020 yilga kelib esa 9 oyning o'zidayoq qurilish ishlari hajmi 71,8 trl. so'mga yetdi. Natijada 2019 yil yakuni bo'yicha Respublika bo'yicha foydalanishga topshirilgan qurilish hajmi 15,5 mln. kvadrat metrni tashkil qildi. 2017 va 2018 yillar uchun ushbu ko'rsatkich mos ravishda 11,5 va 13,4, 15,5 mln. kvadrat metrni tashkil qilgan edi. Joriy yilda esa qishloqlarda 12 mingdan ziyod, shaharlarda 18 mingdan ortiq arzon, ko'p qavatli turar joy barpo etilmoqda. Aholini arzon uy-joylar bilan ta'minlash dasturlari bo'yicha, tadbirkorlar tomonidan bank krediti va o'z mablag'lari hisobidan jami 298 ta ko'p qavatli uy-joylar (xususiy sektor) qurilishi ishlari jadal tus olgan. Qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (Respublika bo'yicha) ham jadal

ravishda o'sib kelmoqda. 2017 yil 1 yanvar holatiga 22 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilga kelib bunday tashkilotlar soni 1,8 barobar o'sib, 40,3 mingtaga yetti. "Obod qishloq" va "Obod mahalla" davlat dasturida belgilangan topshiriqlarga muvofiq 159 ta tumandagi 478 ta qishloqlarning bosh reja sxemalari va batafsil rejalashtirish loyihalari, shuningdek, 41 ta shaharlarda 116 ta mahallalarning bosh reja sxemalari va batafsil rejalashtirish loyihalari ishlab chiqildi. Qurilish sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kirib keldi va "Shaffof qurilish" axborot tizimi ishga tushdi.[2] Natijada:

- qurilish sohasida axborot-texnologiyalar rivojlantirish Markazi tashkil etildi;
- yuridik va jismoniy shaxslarga keng foydalanish imkonini beruvchi "O'zbekiston Respublikasi davlat shaharsozlik kadastrisi" geoaxborot tizimi joriy qilindi;
- qurilish-montaj ishlarida tizimli nazorat o'rnatilib, qurilishning barcha bosqichlarida nazorat qilishning aniq mexanizmlari va ijro hujjatlarini yuritishning elektron onlayn tizimi yaratildi;
- shaharsozlik hujjatlari ekspertizasini elektron hujjatlar almashinuvi orqali bosqichma-bosqich amalga oshirish tizimi joriy etildi;
- vazirlik tizimidagi tashkilotlar zamonaviy kompyuter texnikasi va dasturiy mahsulotlar bilan ta'minlandi.

Qurilish-pudrat tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirish va qurilish ishlari sifatini oshirish maqsadida:

- qurilish-pudrat tashkilotlarining faoliyatini baholash reytingi joriy etildi;
- tashkilotlarning ixtisoslashuvi, qurilish-montaj ishlari turlari, doimiy ishlaydigan ishchi-xodimlar soni, asosiy ishlab chiqarish vositalari to'g'risida ma'lumotlarning yagona elektron bazasi joriy etildi;
- qurilish-pudrat tashkilotlari ishchilarini qayta tayyorlash va kasbga o'qitish bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslari, kasb-hunarga ega bo'lganligi to'g'risida sertifikatlar berish ko'zda tutilyapti.

Shiddat bilan qad ko'tarayotgan ijtimoiy ob'yektlar, ko'p qavatli turar joylar va umuman olganda, barcha turdagi bunyodkorlik ishlari o'z navbatida sifatli qurilish mahsulotlariga bo'lgan talabni kuchaytirmoqda. Shu bois, ushbu yo'nalishdagi ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, yangi turdagi energiya tejamkor qurilish materiallari ishlab chiqarish, sohaga investorlarni keng jalb qilish orqali yirik loyihalarni amalga oshirish, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash borasida tizimli ishlar amalga oshirib kelinyapti. Buning natijasida sohada jiddiy o'zgarishlar yuz beryapti. Prezidentimizning 2019 yil 2 fevraldagi "Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida 2019-2021 yillarda umumiy qiymati 1,3 milliard, shu jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga 692 million AQSh dollari miqdorida amaldagi korxonalarni texnik va texnologik

yangilash hamda yangi korxonalar barpo etish bo'yicha 67 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish vazifasi qo'yildi. Bu va boshqa loyihalarning amalga oshirilishi 2021 yilga qadar sement ishlab chiqarish quvvatlari hajmini 17 million tonnaga, arxitektura-qurilish oynasini — 32 million kvadrat metrغا, yog'och-qipiq plitasi (DSP)ni — 380 ming, gaz-beton bloklarini — 700, ko'p qavatli uylar qurilishi uchun yirik panelli temir-beton buyumlarini — 180 ming kvadrat metrغا yetkazish imkonini beradi. Davlatimiz rahbarining 2019 yil 23 maydagi "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori sohaning yaqin istiqbolga mo'ljallangan istiqbollari va strategiyasini belgilab berdi. Uning asosiy maqsadi tarmoqni jadal rivojlantirish va diversifikatsiya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mahalliy mineral xom ashyo resurslarini qayta ishlashga investitsiyalarni jalb qilish va qurilish materiallarini eksport qilish hajmlarini oshirishga qaratilgan. Bu vazifalarni hal etilishi natijasida 2025 yilga qadar ishlab chiqarish hajmlarini gulqog'ozlar bo'yicha — 47 barobardan ortiqqa, yig'ilgan parket panellari va plitalari — 19 barobarga, yog'och va boshqa yog'ochbop materiallardan tayyorlangan plitalar — 15 barobarga, gazobeton bloklari — 7 barobarga, lak-bo'yoq materiallari hamda energiya va issiqlikni tejovchi float-texnologiya asosida tayyorlangan arxitektura-qurilish oynasi — 4 barobarga, bazaltdan tayyorlanadigan kompozit armatura — 3 barobarga va sement bo'yicha — 2 barobarga oshirish ko'zda tutilgan. Olib borilayotgan ishlar va kiritilayotgan investitsiyalar mahsulot sifatini yaxshilash orqali sohaning eksport salohiyatini ham oshirmoqda. Keramik plitkalar, santexkeramika, gulqog'oz, quruq qurilish aralashmalari, pishgan g'isht, tabiiy toshdan yasalgan pardozbop plitalar, ohak, polipropilen quvurlar, deraza oynasi, fittinglar kabi mahsulotlar eksport qilmoqda. Xulosa urnida shuni aytish joizki O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda asosan arxitektura va qurilish sohasida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Jahonga yuz tutgan ko'plab mamlakatlar bilan o'zaro fikr almashib, shartnoma asosida qurilayotgan, ya'ni jahon standartlariga to'la mos keladigan inshootlarning yurtimizda qad rostlayotgani bugungi kunda olib borilayotgan islohatlarning yorqin dalilidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.Mirziyoyev «Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir». T,O'zbekiston,2018.434-bet.
2. Shavkat Mirziyoyiv «Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik»T,O'zbekiston ,2020